

ANOMAL BOLALAR BILAN ISHLASHDA DEFEKTOLOG FAOLIYATI VA BOLALARNING RIVOJLANISHIGA MOS YONDASHUVLARNI TANLASH MEKANIZMLARI

Xoliqova Zuxra Kaxramonovna

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar DKTIMTT “Imkon”

reabilitatsiya markazi defektologi

E-mail: z.xoliqova79@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqola anomal bolalar tarbiyasi, anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish nuqsonlari hamda kamchiliklarini tuzatish hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda kamchiliklari bo‘lgan bolalarni ertaroq aniqlash chora-tadbirlari haqida mulohazalar yoritilgan.

Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda defektolog faoliyati, vazifalari, anomal bolalarning maktabga moslashishlari uchun yordam ko‘rsatish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: anomal bolalar, ijtimoiy himoya, korreksion-pedagogik, psixologik ishlar, ijtimoiy moslashuv, defektologiya, maktabgacha ta’lim tashkiloti, defektolog, adaptatsiya, reabilitatsiya, inklyuziv ta’lim.

ДЕФЕКТОЛОГИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В РАБОТЕ С АНОМАЛЬНЫМИ ДЕТЬМИ И МЕХАНИЗМЫ ВЫБОРА ПОДХОДОВ, СООТВЕТСТВУЮЩИХ РАЗВИТИЮ ДЕТЕЙ

Халикова Зухра Кахрамоновна

дефектолог реабилитационного центра ДКТИМТТ

«Имкон», г. Карши, Кашкадарьинская область (Узбекистан)

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы воспитания аномальных детей, коррекции дефектов и недостатков психического и физического развития аномальных детей, а также меры раннего выявления детей с отклонениями в физическом или умственном развитии.

Также описаны деятельность и обязанности логопеда в работе с детьми с ограниченными возможностями здоровья, способы помощи аномальным детям в адаптации к школе и подготовке их к социальной жизни.

Ключевые слова: аномальные дети, социальная защита, коррекционно-педагогическая, психологическая работа, социальная адаптация, дефектология, организация дошкольного образования, дефектолог, адаптация, реабилитация, инклюзивное образование.

Bugun dunyo hamjamiyatida inson manfaatlarini himoya qilish dolzarb masalalardan biriga aylangan davrda barcha mamlakatlarda ta'lim-tarbiyaga ustuvor masala sifatida e'tibor berilmoqda. Jumladan, inson tarbiyasi, nafaqat sog'lom bolalar balki anomal bolalar, ya'ni imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy mahoratiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan mamlakatimizda so'nggi yillarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilib, ular uchun har tomonlama imkoniyat yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu boradagi olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar qatorida nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha yangi bir huquqiy tizim yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2021 yil 23 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlarining qabul qilinish bu boradagi ijobiy ishlardan biridir. Mazkur qarorlarning amaliy ahamiyati shundaki, unga ko'ra, nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlarini belgilandi va ular davlat tomonidan nazoratga olinib ijtimoiy himoya qilinadi.

Mamlakatimizda aynan jismoniy va psixik rivojlanishda nuqsoni bo'lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta'limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifat va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta'limning uzviylik va uzluksizligini ta'minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirilib bormoqda. Bolalik bosqichida inson psixologik-pedagogik jihatdan kuchli ta'sirlanadi. O'sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi [2]. Bularning hammasi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo'lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omilidir. Shu boisdan imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy moslashuvi jarayonini o'rganish va ularni maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan holda anomal bola shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish defektologiya fanining asosiy vazifalaridan biridir.

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim tizimida birinchi navbatda bolaning talablari o'rganiladi, ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olinadi, kamchiliklari o'rganiladi. Ushbu ta'lim tizimida ma'lum sharoit yaratilishi lozim. Bunga modifikatsiya, kompensatsiya, adaptatsiya, rehabilitatsiyalar kiradi. Masalan, agarda bola eshitmasa, uni eshitish apparati bilan ta'minlash, yura olmasa - nogironlar aravachasidan foydalanish, qo'lida oddiy qoshiq ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta'minlash va boshqalar. Inklyuziv ta'lim bu maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirish va sharoitga qarab o'zgaruvchan, g'amxo'rlik bilan yondasha oladigan

ta’lim tizimidir. Bu kabi maxsus faoliyat bilan shug‘ullanish har qanday oddiy pedagoglar uchun murakkablik tug‘diradi, chunki ular anomal bolalar bilan ishlash uchun maxsus tayyorgarlikka ega emaslar. Bu faoliyat bilan maxsus tayyorgarlik va yuqori kasbiy malakaga ega bo‘lgan defektologlar ana shunday bolalar tarbiyasi, ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga mas’uldirlar.

Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko‘rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi. Bunday bolalarni tarbiyalash atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni talab etadi. Ana shunday pedagogik jarayonni boshqarish, anomal bolalar bilan ijtimoiy reabilitatsiya ishlarni olib borish bilan ko‘proq defektologlar maqsadli va individual yondoshib bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o‘rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalashni amalga oshiradi [3]. Shuningdek, defektolog oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda respublikamizda defektolog mutaxassislarimiz ommaviy umumiy o‘rta ta’lim maktablarida korreksion rivojlantirish sinflarini tashkil etish, anomal bolalarning maktabga moslashishlari uchun yordam ko‘rsatish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi muammolarni o‘rganmoqdalar. Bu kabi ish mazmunini tartibga solish, tizimli yo‘lga qo‘yish maqsadida hukumatimiz tomonidan maxsus Qaror, normativ hujjatlar ham ishlab chiqilib, ular faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish jarayonini muvofiqlashtirishga erishilmoqda. Jumladan Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 11 avgustdagi “Reabilizatsiya markaziga ega bo‘lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi 510-sonli Qarorida maktabgacha ta’lim tashkilotida defektolog faoliyatini tashkil etish bobi kiritilgan bo‘lib, umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy va psixik nuqsonlari bo‘lgan, shu jumladan nutqida nuqsoni bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun defektolog shtati joriy etilganligi keltirib o‘tilgan [1]. Demak, tajribali va mahoratli defektolog maktabgacha ta’lim tashkilotining rivojlanishida jismoniy va psixik nuqsonlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilarga korreksion-pedagogik yordam ko‘rsatish masalasi bo‘yicha psixologik-tibbiy pedagogik komissiyalar bilan hamkorlikda bolalarda rivojlanish nuqsonlarini erta aniqlash, nuqsonning sababi va xususiyatini anglagan holda ularning ota-onalari bilan psixologik diagnostika va psixokorreksion ishlarni olib borish asosida imkoniyati cheklangan bolaning dunyoqarashi shakllanishiga erishishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR/СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021yil 11 avgustdagi 510-sonli Qarori.
2. Raxmanova V.S., Nurkeldiyeva D.A. «Alohida yordamga muhtoj bolalar reabilitatsiyasi». – T.: «Navro‘z», 2014.-123 b.
3. Shomahmudova R. To‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va nutq o‘stirish. – T.: «O‘qituvchi», 2001 yil, 142-bet.